



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 23-mart, payshanba,  
35 (23.756)-son

**KUN  
HIKMATI**

Aslida tabiat  
va jamiyatdagi  
muvozanat oddiy  
munosabatlardan  
iborat. Faqat uni  
insonning o'zi  
murakkablashtiradi

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
Q A R O R I

## MUBORAK RAMAZON OYINI MUNOSIB TARZDA O'TKAZISH TO'G'RISIDA

Keyingi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oya asosida har bir fuqaro erkin va farovon yashaydigan Yangi O'zbekistonda barpo etish maqsadida xalqimizning azaliy orzu-intilishlariga hamohang va uyg'un holda keng ko'lami islohotlar olib borilmoqda.

Oldimizga qo'ygan bunday ulug'vor vazifani amalga oshirishda biz eng avvalo qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizga, yuksak insonparvarlik tamoyillarini o'zida mujassam etgan milliy va diniy qadriyatlarimizga tayanishimiz tabiiydir. Ayniqsa, el-yurtimiz doimo orziqib, katta xursandchilik bilan kutib oladigan, jamiyatimizda tinchlik, do'stlik, mehr-oqibat va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladigan muqaddas Ramazon oyining bu borada alohida o'rni va ahamiyati borligini ta'kidlash lozim.

Butun dunyo musulmonlari qatori xalqimiz uchun ezgulik, mehr-muruvvat, saxovat, olijanoblik va shukronalik timsoli bo'lgan muborak Ramazon oyini munosib kutib olish va yuqori saviyada o'tkazish, diniy-ma'rifiy, madaniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug'lash maqsadida:

2023-yil muborak Ramazon oyining boshlanishi 23-mart kuni to'g'ri kelishi haqidagi O'zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita va hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Ramazon oyini milliy an'ana hamda qadriyatlarga mos va munosib tarzda o'tkazishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Hududlarda Ramazon oyining mazmun-mohiyatida mujassam bo'lgan odamiylik, inson sha'nini ulug'lash, yaxshilik va mehru saxovat kabi fazilatlarini namoyon etadigan, bugungi tinch va osoyishta hayotimizni qadrlash, oila va mahallalarda, butun yurtimizda mehr-oqibat, o'zaro hurmat muhitini mustahkamlash, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilsin.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon oyini o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi M.M. Kamilov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston  
Respublikasi  
Prezidenti **Sh.MIRZIYOYEV**

2023-yil 21-mart

**Yangilanish va yasharish bayrami - Navro'z munosabati bilan Samarqandda ham xalq sayillari, madaniy tadbirlar tashkil etildi. Erta tongdan ko'hna kent markazidagi ko'cha va xiyobonlar samarqandliklar va shahrimiz mehmonlari bilan gavjum bo'ldi.**



## ELLARNI, DILLARNI BIRLASHTIRUVCHI AYYOM

viloyatimizda keng nishonlandi

Viloyatning asosiy bayram tadbirlari shahardagi Alisher Navoiy nomli markaziy istirohat bog'ida o'tkazildi. Bu yerdagi xalq sayilari yoshu qari o'z-gacha zavq bilan tomosha qildi.

Sayilda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ishtirok etib, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni aks ettiruvchi ko'rgazmalar, sport musobaqalari, milliy-madaniy markazlar vakillarining chiqishlariga guvoh bo'ldi. Barchani bayram bilan qutladi.

Navro'z O'zbekistonda yashayotgan turli millat vakillarini birlashtiradigan, do'stlikni mustahkamlaydigan bayram, - deydi o'zbekiston milliy madaniy markazi rahbari Odil Mirzayev. - Bugungi kunda Samarqandda o'zbek xalqi bilan qarindoshdek yash-

ab kelyapmiz. Urf-odatlarimiz, an'analarimiz bir-biriga yaqin. Xalq sayillari turli millat vakillari o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlayapti.

Bayram tadbirlari doirasida gastronomik festival bo'lib o'tdi. Unda osh va kabob tayyorlash bo'yicha tanlov, shuningdek, sumalak, somsa, bichak va halim sayli tashkil etildi.

Navro'z bayrami oilaviy bayramimizga aylangan, - deydi amerikalik sayyoh Jil Verner. - Chunki har yili Navro'zda oilamiz bilan O'zbekistonga va aynan tarixiy shahar Samarqandga kelamiz. Bu yilgi bayram ham kutganimizdek o'tmoqda. Ayniqsa, har xil milliy liboslardagi chiqishlar, sumalak, ko'k somsa, osh kabi taomlar bizga juda manzur bo'ldi.

Bayram arafasida milliy kashtachilik respublika ko'rgazma-savdosi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonning barcha viloyatlari hamda Turkmanistonda kashtachilik yo'nalishida faoliyat yuritayotgan 60 nafardan ziyod hunarmandlar o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi. Ularning har biri tikib keltirgan kashtalarida Navro'z bayrami an'analariga mos urf-odatlar tasvirlarini ko'rish mumkin.

Istirohat bog'idagi xalq sayillari "Mo'jiza" amfiteatrida tashkil etilgan Navro'z tantanalariga ulandi.

Shuningdek, bayram Qorasuv massivi, Kimyog'arlar, Xishrav hamda Farhod shaharchalarida ham ko'tarinki ruhda nishonlandi.

**Fazliddin RO'ZIBOYEV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).**

## Buyuk allomaga ehtirom

**Kecha buyuk astronom va matematik, davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludiga 629 yil to'ldi.**

Shu munosabat bilan Mirzo Ulug'bek muzey-majmuasida allomaning tavallud kuni nishonlandi.

Tadbirda jamoatchilik vakillari, oliy o'quv yurtlari o'qituvchi va talabalari, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi xodimlari, maktab o'qituvchilari va o'quvchilari ishtirok etib, Mirzo Ulug'bek haykali poyiga gulchambar qo'yishdi.

Tadbirda allomaning astronomiya sohasidagi ilmiy merosi, matematika fani rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritildi.

Ulug'bek davrida Samarqand O'rta asrlar ilm-fani o'choqlaridan biriga aylangan, - dedi Mirzo Ulug'bek muzey-majmuasi direktori Jaloliddin Samarov. - 1420-yilda Registon-da barpo etilgan birinchi me'moriy ansambol - Ulug'bek qurdirgan madrasa bo'lgan. Shu bilan birga, bobomizning astronomiya sohasida yaratgan boy tajribasini butun dunyo tan olgan. Buni yaqinda narparilik haykaltarosh Umrzoq Sharipov tomonidan yaratilgan Mirzo Ulug'bek haykali Fransiyaning Tuluza shahrida joylashgan Fuqarolik aviatsiyasi milliy maktabi hududida o'rnatilganidan ham bilish mumkin.



## Mahalla fidoyilari taqdirlandi

**"Aslida eng qiyin, murakkab vazifa mahalla raisi, faollarning ishi. Chunki ular xonadonma-xonadon yurib, odamlar bilan muomala, munosabat qiladigan kishi, ularning dardu tashvishidan boxabardirlar. Ular o'z ishini a'lo darajada bajarar ekan, o'sha hududda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarni fidoyi mehnati bilan namoyon qila oladigan kishilar mahalladadir. Shuning uchun biz sizga har doim ishonamiz, sizga suyanamiz".**

22-mart - Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan Samarqanddagi Yoshlar markazida o'tkazilgan tantanali anjumanda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov yig'ilganlarni ushbu sana bilan muborakbod etar ekan, tizim xodimlarini ana shunday e'tirof etdi.

Tadbirda mahalla tizimida mehnat qilayotgan fidoyi xodimlar, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. - Yurtimizda Navro'z shukhi kezip yurgan bir paytda mahalla tizimi xodimlari kuni nishonlanishida o'ziga xos ma'no bor, - dedi viloyat hokimi. - Yurtboshimiz mazkur tizimga doim e'tibor qaratib kelmoqda va kechagi bayram tadbirida ham bu sanaga alohida to'xtaldilar. Bu e'tibor birgina o'tgan yili 200 ta mahalla binosining yangidan qurilganida, 585 ta mahallaning infrastrukturasi mustahkamlanayotgani va boshqa ko'plab xayriy amallarda ko'rinadi.

Shundan so'ng Prezidentimiz farmoniga ko'ra mukofotlangan bir guruh mahalla tizimi xodimlariga davlat mukofotlari hamda "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni topshirildi.

Bugun mahalla tizimida aholiga yordam berish imkoniyati ko'paydi, - deydi Qo'shrabot tumanidagi "Sohibkor" mahalla fuqarolar yig'ini

raisi, "Do'stlik" ordeni sohibi Shuhrat Sayfullayev. - Bizning mahallada shu paytga qadar asfalt qilingan ko'chaning o'zi yo'q edi, shag'al to'shalgan yo'l bo'lsa qaniydi, derdik. O'tgan yili 2,5 kilometr yo'l asfaltlashtirildi. Shuningdek, 4 ta oilaviy bog'cha tashkil etildi, bitta 60 o'rinni davlat bog'chasi qad rostladi. Mahallamizning binosi ham o'tgan yili homiylar yordamida qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu kabi ezgu ishlar hamon davom etmoqda.

Mukofotlanganlar orasida aravachada yurishiga qaramay, Past Darg'om tumanidagi Zangi-boyi mahallasida mehnat qilayotgan payvandchi, mahallasida bir necha yillardan beri jinoyatchilik, ajralishlar kuzatilmayotgan mahalla raislari, hududida ish o'rnlari yaratishda boshqalarga o'rnak bo'layotgan hokim yordamchilari, yoshlarning turli sohalarida yaxshi natijalarga erishishiga hissa qo'shayotgan yoshlar yetakchilari, oilalardagi muhit sog'lomligiga ko'maklashayotgan xotin-qizlar faollari bor. Ular bilan suhbatlashar ekanmiz, aksariyat mahalla aholining jipsligi, ular bilan fikri bir joydan chiqqani uchun yaxshi natijalarga erishayotganini aytishdi.

**Gulruh MO'MINOVA.**

## HUQUQ VA ERKINLIKLARIMIZ KAFOLATI

**Munosabat**

**Shu kunlarda Konstitutsiya yangilanyapti, bundan ko'zlangan maqsad nima, degan turli va tabiiyki, o'rinni savollar tug'ilmoqda. Bu savolga javob berish uchun birgina huquq va erkinliklar kafolatini ko'rib chiqish mumkin.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining X bobida Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilangan bo'lib, 43-moddasida Davlat fuqarolarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi, 44-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi belgilab qo'yilgan.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolati - umumxalq tomonidan qabul qilingan, davlat tomonidan o'rnatilgan yoki tasdiqlangan, shaxslar va fuqarolarga belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarni amalda ta'minlashga yordam beradigan huquqiy vositalar, yuridik usullar va shart-sharoitlar majmuidir.

Kafolatlashning asosiy maqsadi fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan to'siqlarni bartaraf etish bilan bog'liq. Siyosiy kafolatlar sifatida huquq va erkinliklarning davlat tomonidan ta'minlanishi hamda tegishli maxsus vakolatli tuzilmalarning tuzilishi hamda faoliyat ko'rsatishini tushunish mumkin.

Jamiyat hayotining turli sohalarida parlament va mahalliy kengashlar nazorati, jamoatchilik nazoratining mavjud ekanligi tegishli sohalarida qonuniyligni ta'minlashga yordam ko'rsatadi. Shuningdek, uchta hokimiyat tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va muvozanatda bo'lish tamoyilining

mavjudligi inson huquqlarini ta'minlashning yaqqol siyosiy kafolatidir.

Inson huquq va erkinliklari ta'minlanishining muhim sharti - huquqiy kafolatlarining yaratilganligi, ya'ni fuqarolar huquq va erkinliklarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanishi hamda ularni ta'minlashga, amalga oshirishga qaratilgan boshqa huquqiy hujjatlarining mavjudligi hisoblanadi.

Bu masalalarda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, jumladan, Asosiy Qonunimizda alohida o'rinni ajratilgan va qonun ustuvorligini ta'minlash bosh vazifa etib belgilangan.

Xulosa shuki, yangilanayotgan Bosh qonunimiz tom ma'noda huquq va erkinliklarimiz kafolati bo'lishi ta'minlanmoqda.

**Z.SAFAROV,**  
**Bulung'ur tumani adliya bo'limi boshlig'i.**  
**B.MAMATQULOQ,**  
**xalq deputatlari Bulung'ur tumani Kengashi deputati.**

## MUKOFOTLAR MUBORAK!

**Prezidentimizning 2023-yil 22-martdagi "Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimizni mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, bir guruh mahalla tizimi faollari orden va medallar bilan mukofotlandi.**

Ular orasida viloyatimizdan quyidagilar bor:

**"DO'STLIK" ordeni bilan**

**Sayfullayev Shuhrat Hoshimovich** - Qo'shrabot tumanidagi "Sohibkor" mahalla fuqarolar yig'ini raisi.

**"JASORAT" medali bilan**

**Yusupov Ulug'bek Dolmurotovich** - Past Darg'om tumani "Zangiboyli" mahalla fuqarolar yig'ini-dagi elektr payvandlovchi.

**"KELAJAK BUNYODKORI" medali bilan**

**Qurbonov Ziyodulla Botirovich** - Jomboy tumani "Katta qishloq" mahalla fuqarolar yig'inidagi yoshlar yetakchisi.

**"SHUHRAT" medali bilan**

**Jo'raboyev Xurshid Abduvaliyevich** - Nurobod tumani "Jom" mahalla fuqarolar yig'inidagi hokim yordamchisi.



**Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarining sifatli, amaldagi tartiblarga mos bo'lishida yuridik xizmat ko'rsatish markazlarining alohida o'rni bor.**

## “E-huquqshunos” — yuridik xizmat ko'rsatishda zamonaviy qulaylik

Chunki bugungi kunda tuman (shahar) dagi markazlar 2 ming 334 ta davlat tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatmoqda. Ularning 1 ming 262 tasi umumta'lim maktablari, 743 tasi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, 54 tasi tibbiyot muassasalari hamda 275 tasi boshqa davlat organlari va tashkilotlaridir. 2022-yilda markazlarga 215 ming 984 ta buyruq va 88 ming 281 ta shartnoma loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kelib tushgan.

Mazkur hujjatlarining 84 foizi huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, 184 dan ortiq buyruq hamda 73 mingdan ziyod shartnoma loyihalariga ijobiy xulosalar berilgan. Shuningdek, 29770 ta buyruq va



16160 ta shartnoma belgilangan talablarga javob bermaganligi sababli rad etilgan.

Lo'nda qilib aytganda, qonun talablariga javob bermaydigan 45 ming 930 ta yuridik hujjat loyihalari amaliyotga tatbiq etilishi, markazlarga davlat organlari va tashkilotlari tomonidan yuborilgan 1 ming 181 ta fuqarolik shartnomalar loyihalariga salbiy xulosa berilib, 8 milliard so'mdan ortiq pul mablag'larining noqonuniy sarflanishi oldi o'ldi.

Shu kabi amaliyot natijasida yuridik xizmat ko'rsatiladigan davlat organlari va tashkilotlarining tuman (shahar) tuzilmalarida qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan qaror va buyruqlar qabul qilinishi kamayishiga erishilmoqda. Biroq bu yuridik xizmat ko'rsatish markazlarining tashkil etilishidan ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida barcha ishlar bajarilganligini anglatmaydi.

Shundan kelib chiqib, “E-huquqshunos” elektron tizimi imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, xususan, davlat organlari va tashkilotlariga sifatli va malakali yuridik yordam ko'rsatishni ta'minlash, davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirib borishga qaratilgan targ'ibot ishlari, seminarlar tashkil qilinmoqda.

**Xurshid BABANOV,**  
**Sirojiddin MAMARAJABOV,**  
**viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimlari.**

# VAKSINATSIYA - epidemiologik vaziyat barqarorligi kafolati



Samarqand shahrida “Immunizatsiya masalalarini targ'ib qilishda OAV vakillarining ishtiroki” mavzusida o'tkazilgan seminar Sog'liqni saqlash vazirligi, “Sanepidqo'mita”ning hududiy boshqarmalari axborot xizmatlari xodimlari, Jizzax va Samarqand viloyatlarida faoliyat yuritayotgan OAV vakillari ishtirok etdi. UNICEF hamkorligida o'tkazilgan anjumanda sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash, jamoat salomatligini muhofaza qilishda immunizatsiya masalalarini keng jamoatchilikka yetkazish masalalari muhokama qilindi. Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi

bo'limi boshlig'i Dilorom Tursunova, UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i Sitsi Singizi masalalarining muhim tomonlari xususida so'z yuritdilar.

- Bugungi kunda epidemik vaziyat barqarorligini ta'minlashning eng muhim sharti vaksinatsiya, - deydi S.Singizi. - Shu bois dunyo miqyosida immunizatsiyani hayotga chuqurroq joriy etishga e'tibor qaratilmoqda. OAV vakillari bilan hamkorlik O'zbekistonda bu jarayonni tezlatishga yordam beradi.

- Sanitariya-epidemiologik osoyishtalikka

**“Hududgaz Samarqand” gaz ta'minoti filiali tomonidan 2021-2022-yillarda aholi xonadonlarida 307 ming donadan ziyod elektron hisoblagich qo'yildi. Ularning 75 mingtasi ko'p qavatli uylarga, 234 mingtasi hovlilarga o'rnatildi.**

## “Aqli” hisoblagichda qarzdor bo'lib qolmaysiz

“Aqli” gaz hisoblagichlar o'rnatilishi orqali gaz iste'moli nazorat qilinib, ma'lumotlarni yig'ish uchun yagona boshqaruv tizimi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, ta'minotdagi yo'qotishlarning oldi olinib, iste'mol qilingan tabiiy gaz uchun debitor qarzdorlikni kamaytirish imkoni yaratildi.

“Aqli” gaz hisoblagichlar o'rnatilgach, bir oyda o'rta 35-40 milliard so'mlik tabiiy gaz uchun to'lovlar onlayn rejimida undirilmoqda.

- Joriy yilning mart oyigacha iste'molchilarga 8 milliard 696 million so'mlik tabiiy gaz yetkazib berilgan bo'lib, 9 milliard 484 million so'mlik tushum ta'minlandi, - deydi “Hududgaz Samarqand” gaz ta'minoti filiali jismoniy shaxslarga tabiiy gaz yetkazib berishni nazorat qilish bo'limi boshlig'i Rayim Xalilov. - Shuningdek, nazoratchilarimiz “aqli” gaz hisoblagichlar o'rnatilgunga qadar shakllangan qarzdorlikni undirish bilan shug'ullanib kelmoqda. Debitor qarzdorligi mavjud bo'lgan 589 nafar fuqarodan 1 milliard 809 million so'm qarzdorlikni undirish yuzasidan sud idoralarga da'vo arizalari kiritildi.

Automatlashtirilgan tizimni tatbiq etish orqali qarzdorlik bilan bog'liq muammolarning oldi olinishi bilan birga yo'qotish hamda noqonuniy foydalanish holatlari to'g'risida ta'minotchining vaqtida ogohlantirilishiga erishiladi.

- Mahallamizdagi 1 ming 260 xonadonning barchasi-ga zamonaviy gaz hisoblagich o'rnatib bo'lingi, - deydi Samarqand shahridagi Do'stlik mahallasi raisi Ikrom G'ulomov. - Shaffoflik ta'minlanib, o'lchash moslamalarini davlat qiyoslov tekshiruvlaridan o'tkazish ishlari gaz ta'minoti tashkiloti tomonidan amalga oshirilmoqda. Biz iste'molchilar ham mas'uliyatni oshirib, gaz va gaz jihozlardan oqilona foydalanishni o'rganishimiz kerak.

Ushbu loyiha iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va iste'molchilar uchun bir qator qulayliklarga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

**Abduvali XUDOYOROV.**

jamoat salomatligi qo'mitasi axborot xizmati rahbari Maftuna Saidovaning aytishicha, profilaktik, epidemiyaga qarshi hamda maqsadli emlash tadbirlari natijasida keyingi 5 yilda ayrim kasalliklar tugatildi, ko'plab kasalliklar dinamikasida keskin pasayish kuzatildi.

2022-yilda bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi emlash uchun 205 milliard so'm ajratildi. Bu 2017-yilda ajratilgan mablag'larga nisbatan 10 baravar ko'p va emlash qamrovi 98 foizga yetkazilib, emlash kalendariga 4 turdagi yangi vakcina kiritildi. Natijada 2017-yilda qizamiq va qizilcha kasalligi, 2018-yilda bezgak kasalligi tugatilganligi to'g'risida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti sertifikatlarini olindi, o'lat, vabo, shol, differiya, qoqshol kasalliklari umuman qayd etilmadi.

2022-yil yakuniga kelib, 2018-yilga nisbatan brutselloyoz 30 foizga, virusli gepatitning “V” turi 96,4 foizga, virusli gepatitning “S” turi 89,9 foizga, OIV infeksiyasi 4,2 foizga kamaydi. So'nggi bir yilda Yevropa va Jahon savdo tashkilotlari va xalqaro talablardan kelib chiqib, ta'lim, qurilish, oziq-ovqat va boshqa sohalar bo'yicha 37 ta sanitariya qoida va me'yorlari yangi tahrirda qabul qilindi va xalqaro andozalarga moslashtirildi. Soha rivoji uchun va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida 243,4 million dollarlik 5 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirilmoqda.

Seminar mamlakatimizda 16 yoshgacha bo'lgan bolalarda bepul majburiy amalga oshirilayotgan emlash bosqichlari, ularni amalga oshirish davomida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

**F.RO'ZIBOYEV.**

## Dolzarb mavzu

# Qachongacha “Iw”laring bewmi!” deymiz?

**O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan so'ng tilimiz taraqqiyoti yo'lida turli sa'y-harakatlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shunday bo'lsa-da, tilimizdagi ayrim kamchilik va nuqsonlar bartaraf etilganicha yo'q. Xo'sh, mazkur muammolarni bartaraf etish faqat ona tili o'qituvchilarining zimmasidami? Yoki bu kabi masalalarga faqatgina Davlat tili rivojlantirish departamenti javobgarmi? Aksincha, davlat tilini hurmat bilan qarash, uni yanada kengroq tatbiq qilish har birimizning burchimizdir.**

To'g'ri, bizning qo'limizdan e'tiborga loyiq, tahsinga sazovor ishlar kelmasligi mumkin, ammo oddiygina telegram kanalida yoki boshqa ijtimoiy tarmoqlarda muloqot jarayonida imlo qoidalarga amal qilgan holda fikrimizni bayon etsak, ana shu ham bizning ona tilimizga bo'lgan hurmatimizdir. Birgina misol keltiramiz: biror ishga rozilik ma'nosini ifodalaydigan “xo'p” so'zini turli ko'rinishlarda qo'llaymiz. Masalan, “xup”, “xop”, “hop” va hokazo. Vaholanki, “xo'p”ning ayrim shevalarda faqatgina “hovva”, ya'ni javobda rozilik, tasdiq ma'nolarini bildiruvchi varianti mavjud.

Shuningdek, ko'pgina reklama va bannerlarda savodxonlik achinarli holatda aks etadi. Bundan anglashimiz mumkinki, tadbirkor va xususiy biznes vakillarining ham savodi talabga javob bermaydi. “X” va “h”ni farqlamaslikdan tashqari, bir qancha uslubiy xatolarga ham duch kelamiz. Misol uchun, “ko'chmas mulk agentligi”ni “kuchmas mulk agentligi” tarzida yozishadi. Yoki xususiy kanallardagi ko'ngilochar dasturlar “bag'oyatda mamnunmiz” birikmasi orqali yakunlanadi. Uslubiy jihatdan esa “g'oyat” so'ziga ham –ba; ham –da

qo'shimchasini qo'shish g'alizlikni keltirib chiqaradi. Bu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Hozirgi zamon qo'shimchasi unli yoki undoshdan keyin kelishidan qat'i nazar, -yapti tarzida qo'shilishi belgilangan. Ammo mazkur qo'shimchani -ayapti tarzida yozilayotganiga guvohmiz.

Ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallarda ham so'z qo'llash bilan bog'liq xatolarga duch kelamiz. Prezidentimizning “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida: “Davlat tili qoidalari buzilishi bilan bog'liq holatlarni muntazam va har tomonlama o'rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish; o'zbek tilining yozma nutqi me'yor va qoidalari ishlab chiqish bo'yicha hamda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini to'liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish...” belgilangan.

Atsuski, amaliyotda bu vazifalar to'laqonli bajarilayotganini ko'rmayapmiz.

**Farangiz BOZOROVA,**  
**Samarqand davlat universitetining filologiya fakulteti talabasi.**



**Fayzulla ISMOILOV**

“Zarafshon”ning jomboylik jamoatchi muxbiri, mohir pedagog, fidoyi inson Fayzulla Ismoilov 75 yoshida vafot etdi.

Fayzulla aka 1948-yilda Jomboy tumanining Quduqli mahallasi, Kulchabiy qishlog'ida tug'ilgan. Samarqand davlat universitetining geografiya fakultetida tahsil olgan.

Qo'lga diplomni olgan 1973-yildan pensiyaga chiqquniga qadar tumandagi 27- va 29-umumta'lim maktablarida ishlagan. So'ngra Jomboy qishlog' xo'jalik kasb-hunar kolleji yoshlarga saboq berdi. Hayotini ilm-ziyoga bag'ishlagan va o'ziga xos uslub yaratdi. Relefi xarita asosida dars o'tish tashabbusini ilgari surib, bunday xaritaning birinchi nusxasini yasagan inson sifatida pedagogika tarixida qoldi.

Fayzulla Ismoilov iqtidorli rassom, publitsist, hajvchi, jahongashta sayyoh edi. Umri davomida mamlakatimiz va qo'shni davlatlar bo'yab 30 dan ortiq ekspeditsiyalar uyushtirgan. U kishining 1990-yillarda “Lenin yo'li” (hozirgi “Zarafshon”) gazetasi bosilgan “Ekvatorni kesib o'tgan matbob” maqolasi ancha shov-shuvlarga sabab bo'lgan edi.

Fayzulla aka 1970-yillardan boshlab tuman, viloyat va respublika nashrlarining jamoatchi muxbiri sifatida faol ijod qildi. Ayniqsa, 1980-1990-yillarda “Lenin yo'li”ga kichik xabar, chizgan rasmlaridan va tahliliy maqolalar jo'natib turar, tahririyatda faoliyat yuritayotgan Iso Abduraymonov, Aziz Yo'ldoshev, Adham Hayitov kabi jurnalistlar bilan hamkorlikda ishlardi. So'nggi yillarda nashr etilgan “Samarqand ijodkorlari”, “Yuragimdasan, Jomboy”, “Jomboy: kecha, bugun, ertaga” kitoblarning yaratilishiga munosib hissa qo'shgandi.

Fayzulla Ismoilov mazmunli hayot kechirdi. Uning porloq xotirasi qalbmizda mangu yashaydi.

**O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi,**  
**“Zarafshon” gazetasi tahririyati jamoalari.**

## REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR

Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi.

Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop.

**MUROJAAT UCHUN TELEFON:**  
**66-233-91-56**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirova notarial idorasida marhum Karaxanyan Petros Grantovichga (2020-yil 30-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayeva notarial idorasida marhum Yakubova Shoiria Aliyevnaga (2017-yil 11-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayeva notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi diplomdan keyingi ta'lim fakulteti ichki kasalliklar kafedrasida sobiq dotsenti

**Vali ABDULLAYEVning** vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

# MEVA FOYDALI, AMMO TISHGA ZARAR YETKAZISHI MUMKIN

**Meva va yangi siqilgan meva sharbatlarini iste'mol qilish tana uchun juda foydali, ammo tish emaliga zarar yetkazishi mumkin. Buning oldini olish uchun ho'l meva iste'mol qilgandan keyin og'iz bo'shlig'ini qanday parvarish qilish kerak?**

## MEVA SHARBATI TISH EMALIGA TA'SIR QILADI

Tish emali mustahkam, ammo uning ham chegarasi bor. Agar chaynash paytida tish danak yoki shunga o'xshash qattiq jisimga tegsa, tabiiyki, unda mikro yoriqlar paydo bo'ladi va bu kariyes shakllanishiga olib keladi. Biroq tish emaliga ko'pincha oziq-ovqatning aggressiv komponentlari ta'sir qiladi. Ularga kimyoviy lzzat kuchaytirgichlarni o'z ichiga olgan fassud, shuningdek, meva, sabzavot va rezavorlar kiradi.

Ayniqsa, sitrus mevalari: apelsin, limon, grey-purtada va anorda juda ko'p organik kislotalar mavjud. Ularni iste'mol qilgach, emal sarg'ish

tusga kiradi. Meva tarkibidagi limon kislotasi emalni yuqalashiradi va nerval bilan bevosita bog'liq dentinni ochadi. Shirin-nordon kokteyl, mevali shirinlik, zanjabil choyi, limonad va boshqa nordon gazlangan ichimliklar ham xuddi shunday zarar yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, issiq ichimlik sovuqdan ko'ra ko'proq zararli, chunki issiqlik limon kislotasining kalsiy fosfat bilan o'zaro ta'sir tezligini oshiradi va tishga shikast yetkazadi.

Shunga qaramasdan, tishlarga foydali bo'lgan mevalar ham mavjud. Ular orasida olma, qulupnay, ananas va qovun bor.

**Olma.** Uning tolali po'sti tishni tozalaydi, milk uchun tabiiy massajchi sifatida ishlaydi va kalsiy bilan to'yintiradi. Bundan tashqari, olma ko'proq so'lak chiqishiga hissa qo'shadi, bu esa tishlarni kariyes paydo bo'lishidan himoya qiladi.

**Qulupnay.** “Gollivud tabassumi”ni orzu qilganlar uchun qulupnay nafaqat ajoyib ta'm va mikroelementlarga ega bo'lgan, balki tishni mukammal oqartirishga imkon beruvchi mevardir.

**Ananas.** Ushbu tropik meva tarkibida ko'p miqdorda S vitamini mavjud bo'lib, u tish emalini

tsing va gingivit kasalligidan himoya qiladi. Ananas shuningdek, kasallik qo'zg'atuvchi mikroblarga qarshi kurashadi va so'lak ajralishini rag'batlantiradi. Bu meva tishga yopishuvchi moddalar paydo bo'lishining oldini oladigan va tish emalini buzadigan kuchli kislotalarni zararsizlantiruvchi bromelina boy.

**Qovun** ayniqsa, chekuvchilar uchun yetishmayotgan S vitaminining katta zaxirasiga ega. Qovun tishlardagi kalsiy yetarli darajada ushlab turish va milkarni mustahkamlashga qodir.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu mevalar ovqatdan keyin tish gigiyenasiga rioya qilingandagina samara beradi.

## MEVA ISTE'MOLIDAN KEYIN TISH GIGIENASI

Meva iste'molidan keyin og'izda nordon ta'm paydo bo'ladi - bu kislota. U tishga kuchli ta'sir qiladi, emalni yo'q qiladi, tishlar sezgirlikni oshiradi va tish nervalarda og'riq paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Rezavor va meva iste'mol qilgandan keyin albatta, kislotalarni neytrallashtirish zarur. Shu bilan



birga, tishni cho'tkalab yuvishga shoshmaslik kerak, chunki meva kislotasi emalni yumshatadi va cho'tka bosimi orqali tish asta-sekin vayron bo'ladi. Boshida og'izni iliq suv bilan chaygan kifoya. Birmuncha vaqt o'tgach esa tishni cho'tka va pasta bilan yuvish mumkin.

**Alisher AHMEDOV,**  
**Samarqand davlat tibbiyot universiteti stomatologiya fakulteti dekani, ortopedik stomatologiya kafedrasining mudiri.**  
**Nizom SADRIVAYEV,**  
**assistent.**

Mulohaza uchun mavzu

# Haqiqatni avvalo, o'zingizdan izlang

Yoxud oldingdan oqqan suvning qadri yo'q

"O'z bilganlarigand qolmayisizlar. Hozir tushligi bor, joyi issiq, ishchilarning borib-kelishi uchun mashina qo'yilgan ishini topish mushkul. Maoshi kamroq bo'lsa, nima bo'пти, ko'tariladi yaxshi ishlasang. Senlarga aytgandim, "Uzoqning bug'doyidan yaqinning somoni yaxshi", deb. Lekin quloq solmadilaring, mana, ishlagan pul-laringni ololmay, sarson bo'lib yuribisizlar". Mahalla raisining qishlog'imizdagi ikki yigitni shunday deb koyiyotgani e'tiborimni tortdi.



Yaxshi mashinada yuraman, deb aldanib qolayotgani mavjud imkoniyatdan vaqtida foydalanmayotganida, deb o'ylayman.

- Ikkii yil oldin oilamdagilarning qarshiligiga qaramay, Rossiyaga ishlagan bor-gandim, - deydi bir tanishim. - Dastlabki uch oyda yo'l xarajatlari uchun ishladim. Keyin sog'ligim yomonlashib, bir muddat yotib qoldim. Tuzalgach, davolanishimga ketgan pullarni qaytarishga to'g'ri keldi. Uyinga esa pul jo'natishning imkoni bo'lmadi. Shunday paytda yaqinlarning yordami asqotar ekan. Oilamdan xabar olib turishdi. Endi ishlarim o'rninga tushib, oilamga pul jo'natishni boshlaganimda, tahlikali vaziyat yuzaga keldi va ish to'xtadi. Keyin narx-navo oshdi, biletlar ham qimmatladi, oylikdan esa darak yo'q. Xullas, Rossiyaga borib, sog'ligimni yo'qotdim, oilamdan, yurtimdan uzoqda sarson bo'ldim. O'sha pulni uyimda, ota-onamning, farzandlarimning bag'rida topsam bo'lardi.

Hayot insonga bir marta beriladi va hammaning ham munosib yashagisi keladi. "O'shanda men bunday qilganimda...", deya o'zingizni qiynashni istamasangiz, oyog'ingiz ostidagi imkoniyatdan to'g'ri foydalaning!

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

# Muzeylar va tarixiy obidalarga o'tgan yil 827 mingdan ortiq sayyoh kelgan

Hozirgi vaqtda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibida 11 ta muzey, 2 ta ko'rgazma zali va 3 ta me'moriy obida faoliyat yuritadi.

Shuningdek, muzey-qo'riqxonada Madaniy meros agentligi tizimiga kiritilgan bo'lib, fondida jami 236041 ta ashyo saqlanadi. Muzey-qo'riqxonasi tizimidagi muzeylar ekspozitsiya zallarida 7404 ta ashyo namoyishga qo'yilgan. Xususan, 2022-yilda jami 3382 dona ashyo fondga qabul qilingan bo'lsa, 450 ta muzey ashyosi restavratsiya qilingan. Ammo 28078 ta ashyo restavratsiya-ga muhtoj.

O'tgan yili muzey-qo'riqxonada jami 21 ta ko'rgazma tashkil qilingan. Shundan 18 tasi ekspozitsiya va ko'rgazma, ikkitasi ko'chma ko'rgazma, beshitasi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil qilingan ko'rgazmalar hisoblanadi.

2022-yilda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tizimidagi muzeylar va tarixiy obidalarga jami 827 ming 152 nafar sayyoh tashrif buyurdi. Ulardan 185 ming 702 nafari xorijiy sayyohlardir. Muzey-qo'riqxonada 2022-yilda 5 milliard 316 million so'm mablag' ishlab topgan.

Shamsiddin RUSTAMOV, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi.



## "OSIYO TABASSUMI"

Registon maydoni ro'parasida joylashgan "Aysel" ko'rgazmalar zalida iqtidorli yosh rassom Ramiz Xodjayevning shu nomdagi ilk shaxsiy ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan nodir va noyob me'moriy obidalar rassom qalbidagi me'moriy manzara tasvirlarini ishlash ishtiyoqini anglatadi. "Osio tabassumi" zamirida ham ana shu ramziy ma'no yashiringan. Rassomning "Kechki Buxoro" asarida ulug' obidalar quyoshga to'yinganligi, kompozitsiyadagi yondashuv va yechimlarning betakrorligi bilan e'tiborni tortadi. "Shohi Zinda", "Ko'hna Samarqand" me'moriy manzaralari yoz va kuz fasllarida ishlangan bo'lsa, Chorsu fonida oldingi o'rinda qor kurayotgan odamlar tasvirlangan "Qor tozalash", sokin Samarqand ko'chalaridan birida qish kayfiyatini berishi "Qish" kartinasida yilning shu fasliga xos jihatlar mahorat bilan tasvirlangan. Shuningdek, rassomning "Issiqko'lining go'zal manzaralari" turkumida bajargan ishlari moviy osmon, lojuvard ko'l va go'zal sohillar har bir san'at shinavandasini shu go'shalarga chorlaydi.

Tasviriy san'atning nafis turlaridan biri bo'lgan rang-tasvirning qator janrlarida ijod namunalari namoyish etishi rassomning borliqqa bo'lgan o'ta ziyrak nigohi va cheksiz muhabbatidan dalolatdir. Xususan, uning serquyosh zaminda pishib, shirasi tilni yoradigan mevalardan iborat betakror kompozitsion yechim-dagi natyurmortlarining har biri o'ziga xos talqinda ifoda etilgan.

Yosh rassom o'zining ilk shaxsiy ko'rgazmasini "Osio tabassumi" deb nomlagani har bir janrda yaratilgan ishlari zamirida mujassamligi ko'rgazmaga sinchkovlik bilan nazar tashlaganda namoyon bo'ladi. To'g'ri, ishlari halli o'Icham jihatidan mo'jaz. Ammo qisqa vaqtda shaxsiy ko'rgazmani muxlislar muhokamasiga havola qilish shijoat va izlanuvchanlikdan dalolat. Aynan shu xislatlar ijodkorning yuksak saviyadagi asarlar yaratishiga zamin bo'ladi.

Hamza JO'RAYEV, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti.



# Har bir sohada ruhshunos xizmati bo'lishi kerak

Shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammolariga psixologiya asosida yondashish zarurligini dunyo tibbiyot olimlari ham ta'kidlab keladi. Chunki inson ruhiyatini tushunish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Shuningdek, har bir korxonada-tashkilotda psixologik xizmatlarni tashkil etish lozim deb o'ylayman. Chunki psixologik xizmat metodologiyasini yaratishda insonning hissiy holatini tushunish va o'z mehnati mahsulidan qoniqish hosil qilib, tahlil etishga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazida ishsiz fuqarolarning kasb-hunar o'rganib, o'z yo'lini topib ketishida psixologlarning ham o'rni bor. Markazimizda hayotda o'z yo'lini topishga qiynalayotgan, o'z muammolariga uchragan, imkoniyati cheklangan hamda ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan fuqarolar ta'lim va kasblarni egal-lamoqda.

Markazimiz psixologlari ish

faoliyatida tinglovchilar bilan psixodiagnostika, profilaktika, ruhiy maslahat hamda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bormoqda. Shuningdek, ruhiy salomatligida muammosi bo'lgan, yordamga muhtoj tinglovchilar bilan alohida ish olib borilyapti. Ularning murojaatlari asosan ruhiy holatidagi o'zgarishlar: stress, affekt, zo'riqish, agressiya, depressiv holatlari maxsus so'rovnomalari asosida aniqlanib, tegishli metodikalar orqali psixologik yordam berilyapti. Og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan, ya'ni, zo'rovonlik holatiga uchragan tinglovchilarga individual maslahatlar berib borilmoqda.

Jumladan, ruhshunos xizmati-

ga murojaat qilib, o'z muammoga yechim topgan 30 nafardan ortiq tinglovchi bugungi kunda o'zi sevgan kasbida faoliyat yuritmoqda.

Psixolog soatlarida o'z-o'ziga baho berish, xotirani rivojlantirish, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash hamda stressni yengish borasida ko'nikma berib boriladi.

Negativ fikrlaydigan, hayotdan noliydigan, o'ziga ishonchi past bo'lgan tinglovchilar bilan individual va guruhda psixologik maslahatlar ham tashkil etilgan.

Xosiyat NASRULLAYEVA, Samarqand shahar "Ishga marhamat" monomarkazi ruhshunosi.



- Ha, nima bo'ldi jo'ra, burga tepdimi? - hazillashdi Rahmat buva ko'rpachaga chiqar ekan. - Qani, omin, Alloh shifo bersin!

Ikki birodar ancha suhbatlashib o'tirishdi. Ko'pkarilar-da, tala-to'pda uloqni qanday olib chiqib ketganlari, qanday sovrinlar olishganini eslashdi. Shodi buva ancha yengil tortdi, bir sutkadan beri tuz totmagan odam osh-nasi bilan tanovul qildi.

- Xo'p, endi men qaytay, jo'ra, seni toliqtirib qo'ydim. Damingni ol. Dori qog'ozingni ber, ko'ray-chi, do'xtir nimalar yozibdi? - Rahmat buva ketishga taraddudlandi. Shodi buva yotib qatigdan dori qog'ozni uzatdi. Rahmat buva uni qatib cho'ntagiga soldi.

- Hozir borib olib kelaman, kamping boyaqash ovora bo'lib yurmasin. - Ey, bu nima qilganing, qo'y xafa bo'laman-a, nevaralar kelisha, o'zlar olib kelishadi, - dedi buni kutmagan Shodi buva xijolat bo'lib. - Sen ovora bo'lma!

- Ovorasi bormi, xo'p, men boray, omin! - Rahmat buva o'rnidan turdi. Oradan ko'p o'tmay, bir sellofan paket dori ko'tarib kirib keldi.

- Hoziroq bularni ichishni boshla, inshoalloh, ko'rma-gandek bo'lib ketasan, oshna! Men yana xabar olaman. Mana bu pulni ol, zarur bo'lsa, ishlatsan, - Rahmat buva do'stiga bir taxlam pul uzatdi.

- Bu nima qilganing, qo'y, kerak emas pulimiz bor. - Shodi buva uning qo'lini qaytarishga urindi.

- Ol, puling bo'lsa ham olasan, olmasang, xafa bo'laman. Shunday paytlarda bir-birimizning kunimizga yaramasak, birodarligimiz qayerda qoladi, jo'ra! Shodi buva harchand qarshilik qilmasin, Rahmat buva zo'rlab, qo'lga pulni tutqazib, o'rnidan turdi.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

Jannatmakon yurtimiz qadimdan o'zining ming dardga davo giyohlari, shifobaxsh buloqlari bilan mashhur. Mamlakatimizning shunday ajoyib go'shalaridan biri Nurobod tumanidagi Tim qishlog'idir.

Qishloqqa kirib kelishingiz bilan salqin, kishiga tetiklik baxsh etuvchi havo ufuradi, ko'zingiz ko'p yillik o'rik daraxtlariga tashlanadi. Bu yerda tarixdan so'zlovchi qadim maqbaralar, qadamjolar, ming yillik archo daraxti mavjud.

Ayniqsa, shifobaxsh xususiyatli buloqlari e'tiborga molik. Ana shu buloqlardan biri qishloqning yuqori qismida, Piyozli tog'i etagida joylashgan G'urulloq bulog'idir. Bolaligimizda qo'y-qo'zilarini podaga qo'shib kelish asnosida o'sha Piyozli tog'i etagiga ko'p borganmiz, G'urulloq buloqning suvidan to'yib ichganmiz. Lekin xalqimiz "Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q", deganidek, suvning shifobaxshligiga e'tibor bermaganmiz. G'urulloq bulog'i Piyozli tog'ining yer osti

# Tim qishlog'ining shifobaxsh buloqlari

qatlamlaridan tabiiy kuch bilan otilib chiqib, quyiga - qishloq ariqlarini suv bilan ta'minlaydi. Suvni ichgan kishining tani yayraydi, tetik bo'ladi. Vujudingizga qandaydir kuch oqib kirayotganini sezasiz. Ona tabiatning inson zotiga bergan eng ajoyib in'omlaridan biri shu bo'lsa kerak!

Keksalarning ta'kidlashicha, o'tgan asrning 50-yillari Paxtachi tumanidan bir kishi ushbu buloqni qidirib keladi va mahalliy aholiga dardini aytadi:

- Uylanganimdan keyin ko'p yillar farzandsizlik dardi meni qiynadi. Shifo izlab ko'p joylarga, hakimlarga murojaat qildim. Shunday qiynalib yurganimda tushimga bir buloq kirdi. U tog'ning etagida emish... Hovuchimga suvidan olib, qonib-qonib icharishman. Tanim yayrarmish, huzur qilarkanman...

To'y-tomoshalarda, yig'inlarda o'sha buloqni surishtiraverdim, qayerda ekan, deb

izlayverdim. Nihoyat bir davrada aytishdi: Siz qidirayotgan buloq Timdagi G'urulloq bulog'i. Shu buloqning suvidan ichish uchun Timga keldim, buloqni topdim. Buloq suvidan hovuchimga olib, to'yib-to'yib ichdim. Biroz dam olgach, buloq atrofini aylandim. Tog' buriishlari orasidan oqib kelayotgan soy, yonbag'irlikdagi yovvoyi bodom, kiyiko'ti, lola, ravoch, yovvoyi piyozni ko'rdim. O'zim bilan olib kelgan idishga to'ldirib buloq suvidan oldim. Yaratganga shukur qildim. Turmush o'rtog'im ikkimiz shifobaxsh buloq suvidan yetti kun niyat qilib ichdik va najot topdik - farzandli bo'ldik.

Qishloqning quyi tomoniga yo'l olsangiz, baland tuproqko'rg'on tagidan oqib chiqayotgan ikki buloqqa duch kelasiz. Biri - Jilibuloq, ikkinchisi - Qo'tirbuloq. Jilibuloqning suvi qishin-yozin bir xil haroratda bo'ladi. Har ikkala buloqqa qishloq ahli va yon-atrof aholisi najot izlab, shifo umidida

kelishadi. Masalan, qo'llarida so'gali, qo'tiri bor kishilar, bolalar uning suvidan ichishadi, tuprog'ini loy qilib, qo'llariga surtishadi.

Esimda, bolalik paytimizda o'sha buloq suvlari uyimizgacha oqib kelardi. Suv tinigach, ariq chetlarida qora loy qatlami qolardi. Kuni bilan yugurib o'ynaganimizda, ba'zan qo'l-oyoqlarimiz shilinib, yara bo'lar-di. Onamga aytishga qo'rqib, ariq chetidagi o'sha qora loydan ozgina surtsak, yaramiz tuzalib ketardi. Endi bilsak, bu o'sha buloq suvining shifosi ekan.

Qishloqning mashhur Alitosh degan joyida Ali bulog'i bor. Suvni muzdek. Yonidan o'tayotganingizda engashib suvidan ichingiz keladi. Hatto uyida zilol suvli qudug'i bor hamqishloqlarimiz ham har zamonda kelib, Alibuloqning suvidan uylariga olib ketishadi. Suvi ma'danli, shifobaxsh.

Boborahmat MUHAMMADIYEV, o'qituvchi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi  
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV  
Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 613 nusxada chop etildi. Buyurtma 155. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2  
Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.  
QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56  
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61  
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.  
«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.  
Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.  
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.  
Navbatchi: O'.XUDOYBERDIYEV.  
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.  
Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling



ISSN-201667X  
9 1772010667009  
Sotuvda narxi kelishilgan holda